CHO'LLANISHNI OLDINI OLISH OROL DENGIZI MISOLIDA

Abdulloyeva Go`zal Xidirboy qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tobora cho`llashib borayotgan Orol dengizi hududlariga tarixiy nazar,cho`llashishga zamin bo`luvchi geografik sabablar hamda unga qarshi kurashish choralari to`grisida ayrim malumotlar keltirib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Cho`llashish,Orol gengizi, Xorazmiy, Arang, BMT, Trast fondi, Amu 1, Amu 2, saksovulzorlar.

Yer quruqligining 40 mln km.kv maydoni qurg'oqchilik mintaqasi bo`lib, dunyo aholisining 15% dan ortig'i ushbu hududga mos ravishda qishloq xo'jaligining tezkor rivojlanishi, sug'oriladigan yerlar va yaylovlardan noto`g`ri foydalanish oqibatida, o'rmonlarning betartib kesilishi natijasida cho'llanish darajasi yil sayin ortmoqda. Inson ta'siri natijasi vujudga kelgan cho'llar 9,1 mln. km. kv.ga yetdi. Dunto miqyosida ekologik muammolarga baho berishning mezoni havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, yaylovlarning ishdan chiqishi, o'rmonlarda daraxtlarning kesilishihamda ularning belgilangan miqdordan oshib ketishi va boshqalar hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy ekologik muammolardan eng muhimi Orol va Orol bo'yi ekologik muammosidir.

Orolning yoshi haqida tarixiy manbalarda aniq ma’lumot bo‘lmasa-da, juda qadim zamonlarda dengizning sharqiy bo‘ylarida massaget va saklar, janubiy tomonida esa ugar qabilalari yashab, chorvachilik, baliqchilik, dehqonchilik bilan kun kechirganliklari uning tarixi ming yillarga borib taqalishidan dalolat beradi.

Miloddan oldin yashab o‘tgan antik davr tarixchilari Strabon va Varron, xitoylik sayyoh va olim Jon Syan Orol haqida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirishgan. Abu Rayhon Beruniy "Geodeziya" asarida Orol dengizining uzoq tarixiga oid batafsil ilmiy ma’lumotlar keltirgan. Al-Xorazmiy Orol chekka nuqtalari koordinatalarini quyidagicha bergan: uzunligi $86^0 30^0$-90^0, kengligi $30^0 10^0$-42^0. Bu ko‘rsatkichlar IX

asrda Orol uchun birinchi kartografik ma’lumot edi. Orolning kattaligi haqida qadimda yashab o‘tgan olimlarda turlicha fikrlar mavjud. Agar Al-Istaxriy dengizning aylanasi 103 farsax (bir farsax 6-7 km) deb yozgan bo‘lsa, Muhammad ibn Najib Bakron 100 farsax, Ibn Rusta esa 80 farsax deb hisoblagan.

Dengiz uning atroflarida yashovchi odamlarga bosqinchilar hujumidan saqlanish uchun mustahkam qal’a bo‘lgan. Rivoyat qilishlaricha, Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) Xorazmga bostirib kirishi oldidan u yerga o‘z ayg‘oqchilarini yuborgan. Ayg‘oqchilar qaytib kelishgach, buyuk fotihga shunday deyishgan: "Xorazmni fath qilib bo‘lmaydi, sababi uni himoya qiladigan, balo-qazolardan saqlaydigan ulkan dengizi bor ekan". Bu gapni eshitgan Iskandar Xorazmga hujum qilish niyatidan qaytgan.

Yana bir rivoyatga ko‘ra, Chingizxonning o‘g‘illari Chig‘atoy va Jo‘ji Urganchni egallagach, Orol bo‘yida yozgi qarorgoh qurishni rejalashtirishadi. Ammo dengiz atrofida yashovchi qabilalar mo‘g‘ullarga tez-tez hujum qilib, ularni bezovta qilishgan. Shu vajdan ular yozgi qarorgoh qurishdan voz kechgan ekanlar.

Orol shuncha yillardan buyon barhayot bo‘lib, atrofida yashovchi xalqlarga rizqu nasiba berib kelganligi ikki azim daryo - Amudaryo va Sirdaryo bilan chambarchas bog‘liq. Chunki bu daryolar dengiz uchun asosiy suv manbai bo‘lgan. Orol eng ko‘p suvni Amudaryodan olgan. "Avesto"da daryo "Arang" deb tilga olingan.

"Osiyoda chor atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan vodiy bor, - deb yozadi tarixchilar otasi Gerodot... Atrofidan ka\tta daryo oqib o‘tadi. Uni Araks deb ataydilar. Uning 40 ta tarmog‘i bo‘lgan, ulardan biri Xasar (Kaspiy dengizi)ga qo‘yilgan. Bunday fikrni Strabon va Polibey kabi qadim dunyo olimlari ham bildirishgan.

Aleksandr Makedonskiyning O‘rta Osiyoga harbiy yurishlari ishtirokchisi Aristobul shunday yozadi: "Men ko‘rgan daryolarning eng kattasi Oks (Amudaryo) edi. Bu daryoda kemalar qatnab turardi, hind savdogarlari Kaspiy dengiziga shu daryo orqali kemalarda suzib borishgan".

Abu Rayhon Beruniy qadimgi geologik davrda Amudaryo Zaim (Kerki, Turkmaniston) yonidan Qoraqum orqali Kaspiy dengiziga oqqan deb hisoblaydi.

Keyinchalik u shimolga burilgan va bu yerdan bir qismi Qiz dengizi (Sariqamish) tomonga, yana bir qismi Xorazm (Orol) dengiziga oqqan.

XV asrda yashagan tarixchi olim Hofizi Abru "Jug‘rofiya" va "Zubat ut-tavorix" asarlarida Amudaryo va Sirdaryo o‘z suvini Kaspiy dengiziga eltganligi sababli Orolning suvi qurib qolganligini yozadi. Bu Amudaryoning o‘z uzanini o‘zgartirib, O‘zboy orqali oqqanligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Ispaniya qiroli nomidan Sohibqiron Amir Temur huzuriga elchi bo‘lib kelgan Klavixo, shuningdek, arab muarrixi Ibn Arabshoh ham Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilganligini qayd etganlar. 1558 yilda Antoniy Jenkinson Angliyadan sayyoh va elchi sifatida Xorazmga keladi. U bu vaqtda Amudaryoning Kaspiyga emas, Orol dengiziga oqqanligiga guvohlik beradi.

Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zi tug‘ilishidan (1603 yil) o‘ttiz yil oldin Amudaryo Qoraayg‘ir to‘qayidan suv olib, Orol dengiziga oqa boshlaganini yozadi. Shu sababli Urganch atroflari deyarli cho‘lga aylangan. Bu Jenkinson Xorazmga kelib ketganidan o‘n besh yil o‘tib yuz bergan. 1625 yilda Urganch o‘zbeklari suv yo‘qligidan Buxoro, shuningdek, qozoqlar, mang‘itlar yashaydigan o‘lkalarga ko‘chib ketishga majbur bo‘lishgan.

Demak, Orol daryo uzani o‘zgarganligi bois qurib qolgan, ammo yillar, zamonlar o‘tishi bilan Amu va Sirdaryodan suv olib, yana dengizga aylangan, o‘z holiga qaytgan.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligiga erishgach, Orol muammolariga ham jiddiy e’tibor berildi. Istiqlol yillarida dengiz qurishi bilan bog‘liq zararli oqibatlarni kamaytirish, Orolbo‘yi mintaqasida yashovchi odamlarning sihat-salomatligini saqlash, turmush sharoitlarini yaxshilash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Uning qurigan joylariga saksovulzorlar, yashil o‘rmonlar yaratishga qaratilgan tadbirlar ko‘rildi. Ayniqsa keyingi ikki yilda bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi, shiddatli, keng qamrovli tus oldi. 2018 yil 27 noyabrda BMTning Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosidagi Trast fondi tashkil etildi. Aynan ushbu tashabbusni Prezidentimiz taklif qilgan edi, uni xalqaro tashkilot Bosh kotibi Antoniu Guterrish qo‘llab-quvvatladi. 2018 yil 5 iyunda Orol muammolariga bag‘ishlangan Toshkent xalqaro konferensiyasida ishtirok etgan

butunjahon suv kengashi prezidenti Benedito Braga (Fransiya) "Orol muammosi faqat O‘zbekistonga yoki Markaziy Osiyo mintaqasiga tegishli emasligini barchamiz yaxshi anglaymiz", dedi. Bu esa Orol fojiasi yaqin va uzoq mintaqalarga tegishli global muammo ekanligining e’tirof etilishidir.

Hozir Orolbo‘yi qayta uyg‘onib, poyonsiz, ko‘z ilg‘amas sahroga yangidan hayot baxsh etish uchun misli ko‘rilmagan ishlar olib borilmoqda. Qish oylarida 500 ming gektar maydonda saksovulzorlar tashkil etildi. Nihoyatda sho‘rxok yerlarning 100 ming gektariga tamarind o‘simligi ekildi. Uning gulidan nektar olishni asalarilar juda xush ko‘radi, binobarin bu yerda asalarichilikni rivojlantirish imkoniyatlari tug‘iladi.

Orol fojiasi natijasida birinchi navbatda xalqimiz, so‘ngra butun dunyo jabrlanayotgani bot-bot takrorlanib kelinmoqda. Uning oqibatlarini yengillashtirish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar olib borildi. Xo‘sh, ahvol o‘zgardimi?

– Birinchidan, Orol dengizining suvi tortilib, qurigan qismida yangi tuproq qatlamining paydo bo‘lish jarayoni ketmoqda. Tabiiy tarzda o‘t-o‘lanlar o‘sib chiqmoqda. Demak, qurib qolgan maydonlar zaharli chang-to‘zonlardan tozalanib, bu yerdagi tuproq hosildorligi ortmoqda. Ikkinchidan, hozirgi paytda suvsizlanib qolgan maydonlarda yuz minglab gektar yerlarga o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan o‘simliklar (saksovul, qandim va hokazo) ekilib, o‘rmonlar barpo etilmoqda. Orol dengizining 5,5 million gektar maydonidagi qurib qolgan yerlarning kamida 3,5 million gektar yerida tabiatning kuchi bilan o‘t-o‘lanlar o‘sib ketsa, bu yerlarda ulkan yaylov maydonlari paydo bo‘lishi mumkin.

Hozirgi paytda ekologik vaziyatlar sababli Qizilqum va Ustyurt yaylovlarining tabiiy hosildorligi kamayib bormoqda. Shu sababli dengizning suvsiz maydonlarini chorvachilik uchun yaylov sifatida foydalanish kelajakda dolzarb muammoga yechim bo‘la olar edi. Bu choralar uzluksiz amalga oshirilsa, hududdagi ekologik ahvol ham yaxshilanishi kutilmoqda.

O‘t-o‘lan o‘smaydigan yerlarda chang-to‘zon ko‘tarilishda davom etishining ham chorasi topildi. Yaqinda Qoraqalpoq davlat universitetining Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasi doktoranti Maxmud Allamuratov ilmiy yangilik –

dengizning o‘simlik o‘smaydigan qumli yerlarida qumlarning ko‘chishini to‘xtatish uchun sepiladigan (purkaladigan) kimyoviy birikmani ixtiro qildi. «Amu 1», «Amu 2» nomi berilgan ushbu birikmalar qumning yuzasini 8 millimetr qalinlikda qotirib tashlaydi. Har yomg‘ir yog‘ishi birikmaning mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Ba`zi professor olimlarning ta`kidlashicha, Orol dengiziga suv olib kelishning imkoni bor. Jizzaxda katta ko‘llar tizimi bor. 1969-yili Sirdaryo suvining to‘lib, 21 kub kilometr suvning qirg‘oqlaridan chiqib ketishi natijasida paydo bo‘lgan ushbu Aydar-Arnasay ko‘llar tizimi hozir Qizilqumni botqoqlikka aylantirmoqda. Chunki, 1993-yildan buyon bir necha bor Sirdaryoning ortiqcha suvi shu ko‘llarga quyilib, ko‘llar tizimining maydoni yildan-yilga kattalashib bormoqda. Uning suvini bekorga cho‘lga oqizib yuborilgandan ko‘ra, Orol dengiziga quyishning chorasi ko‘rilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Bundan, albatta, dengiz to‘lib qolmaydi, lekin uning minerallashuv (tuz ko‘lamining ortishi) darajasining pasayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Gerasimov I P ekalogicheskie problem’ v prrshloy nostoyashiy ibudushey geografii mir M Nauka 1985

2. Izrael’ Yu A ekalogiya ikontrol sostoyaniya prirodnoy sred’ M Gidrameteozdat 1984

3. Manitoring prirodnoy Srediu v basseyne Aral’kogo morya L Gidrometedizdat 1991

4. Berg L. S, Aralskoye more, SPB,1908;

5. Shuls V. L., Mashrapov R., O‘rta Osiyo gidrografiyasi, T., 1969;

6.Rafikov A. A.,Tetyu yan G. F., Snijeniye urovnya Aralskogo morya i izmeneniye prirodnix usloviy nizovyev Amudari, T., 1981;

7. Glazove kiy A. F., Aralskiy krizis, M., 1990; Akramov 3., Rafikov A. A., Proshloye, nastoyasheye i budusheye Aralskogo morya, T., 1990;

8.Xikmatov B. F., Izucheniye dinamiki elementov vodnogo balansa i mineralizatsii Aralskogomorya, Dissertatsiya na soiskaniye akademicheskoy stepeni magistra gidrologii, T., 2003.